

SIYOSIY PARTIYALAR SIYOSIY ELITALAR REKRUTATSIYASINING ASOSIY OMILI SIFATIDA

Mardanov Sardorbek Zafar o'g'li

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti
Ijtimoiy Fanlar fakulteti 3-kurs talabasi*

Abstract: *This article describes the role of political parties, which are political subjects, in the recruitment (exchange) of the political elite, and how political parties are an important factor in the recruitment (exchange) of the political elite. In the course, of the article, a solution will be found to what extent political parties have a dominant position in the recruitment of the political elite compared to other political institutions.*

Keywords: *Political parties, political elite, management, political elite recruitment, political process.*

Аннотация: *В данной статье описывается роль, политических партии являющихся политическими субъектами, в рекрутировании (обмене) политической элиты, а также то, как политические партии являются важным фактором рекрутирования (обмена) политической элиты. В ходе статьи будет найдено решение, в какой степени политические партии занимают доминирующее положение в рекрутировании политической элиты по сравнению с другими политическими институтами.*

Ключевые слова: *Политические партии, политическая элита, менеджмент, рекрутирование политической элиты, политический процесс.*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada siyosiy elita rekrutlashuvida (almashishida) siyosat subyekti bo'lgan siyosiy partiyalarning o'rni qanday ekanligi va bunda siyosiy partiyalar qanday qilib siyosiy elita rekrutatsiyasida(almashishida) muhim omil ekanligi yoritiladi. Maqola bilan tashish mobaynida siyosiy partiyalarning siyosiy elita rekrutatsiyasida dominantlik pozitsiyasi qolgan siyosiy institutlarga qaraganda qanday darajada ekanligiga ilmiy asoslar orqali yechim topiladi.*

Kalit so'zlar: *Siyosiy partiyalar, siyosiy elita, boshqaruv, siyosiy elita rekrutatsiyasi, siyosiy jarayon.*

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Asosiy nuqta bu siyosiy partiya fenomeniga va siyosaiy elita rekrutatsiyasiga ta'rif berish olish hisoblanadi. Rossiyalik olim Z.I.Zotova o'zining "Siyosiy partiyalar va saylov jarayoni" asarida ikki yuzdab ortiq talqinni ilgari surganligini ta'kidlaydi. Bunda tadqiqotchilarning qaysi pozitsiyadan turib yondashganligiga qarab, zamonaviy siyosatshunoslik va huquqshunoslikda siyosiy partiyalar ta'rifiga doir elektoral(D.Sartori), tizimli(M.Dyuverje, M.Ostrogorskiy), funksional(K.Louson, U.Krotti, R.Makriddis), tizimli-funksional(K.Noyman, J.Lapalombara, J.L.Kermonn),

mafkuraviy(K.fon Beyme) va boshqa talqinlari mavjudligini qayd etish mumkin.⁴⁷ Siyosiy rekrutatsiya – siyosiy elitaning almashish jarayoni yoki elitalar almashinuvining amalga oshirilishi jarayoni.⁴⁸ Bu jarayon 2 xil usulda amalga oshadi.

- 1) Islohatlar yo‘li bilan;
- 2) Inqiloblar yo‘li bilan.

1-usul oqilona yo‘ldir. 2-usul inqirozga va tanazzulga xizmat qiluvchi yo‘ldir. Sababi inqilob orqali tiklangan siyosiy hokimyat vaqt o‘tishi bilan ichki va tashqi konfliktlar asosida yemirilib boradi va bu hokimyat egalarini ham shu jarayonning qaytarilishi kutadi.⁴⁹ Siyosiy partiyalar, odatda, siyosiy elita rekrutatsiyasida boshqaruv sohasida transformatsion, sirkulyatsion muhitni ta‘minlashda asosiy dominant sifatida siyosiy mayonda faoliyat ko‘rsatadi.⁵⁰

Zero, “siyosiy elita rekrutatsiyasi+siyosiy elita” strukturasi aniq va tizimli tahlil qilish va uning ilmiy asoslarini keltirish zamonaviy elitologiya borasidagi dolzarb muammolardan biri sifatida ko‘rish mumkin. Buning uchun ilmiy izlanishlarning izchilligini ta‘minlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.⁵¹

Boshqaruv organlari va oddiy a‘zolar o‘rtasidagi aloqalar turli partiya faoliyatining xarakterini, muayyan ish usullarining ustunligini va partiya mexanizmining muayyan bo‘g‘inlarini belgilaydi.⁵² Agar biz partiyani majoziy ma‘noda konsentrik doiralar shaklida tasavvur qilsak, unda biz quyidagilarni ajratib ko‘rsatishimiz mumkin:

1) “Hamdardlar” doirasi (ya‘ni “qattiq saylovchilar” va partiyaga bo‘lgan munosabati uning foydasiga ovoz berish bilan chegaralangan hamdardlar).

2) Partiya a‘zolari doirasi (ya‘ni, a‘zolik badallarini to‘lash, partiya ta‘limotini targ‘ib qilish, partiya intizomiga rioya qilish)

3) Faollar va amaldorlar doirasi (ya‘ni, ularning ommaviy va kadrlar partiyalardagi roli bir xil bo‘lmasada-da, ular uchun partiya hayotining ma‘nosini ifodalaydiganlar). Kadrlar partiyalarida faollar qo‘mitalar a‘zosi bo‘lsa, ommaviy partiyalarda ular har bir asosiy guruhning o‘zagini tashkil qiladi va yetakchilarning qarorlarini amalga oshiradi.⁵³

Tadqiqot usuli va metodologiya. Zamonaviy siyosiy elitlarni uch o‘lchovli modeli elitaning quyidagi vektorlariga yo‘naltirilganligi g‘oyalariga asoslanadi:

- 1) “Mafkuraviy-kuch-siyosiy”;

⁴⁷ Золдотухин. И.Н. Партийки фактор в политическом системе США и Республики Филиппин // Ойкумена. – 2008. - №3. – С.73.

⁴⁸ K.M.Mirzaaxmedov. Siyosiy elita va yetakchilik: ma‘ruza. 2023. 1-2b.

⁴⁹ K.M. Mirzaxmedov. Siyosiy jarayonlarning tizimli tahlili: Ma‘ruza. 2023. 3-4b.

⁵⁰ K.M Mirzaaxmedov. Davlat boshqaruvi asoslari: Ma‘ruza. 2022. 7b.

⁵¹ K.M Mirzaaxmedov. Siyosiy elita va yetakchilik: Ma‘ruza. 2023. 4b.

⁵² А.Ю.Другова, Н.П.Малетина, О.В.Новаковой. Элиты стран востока: [сборник статей]/ Моск.гос.ун-тим. М.В.Ломоносова, Ин-т стран Азии и Африки, Центр изучения совр. Проблем Юго-Восточной Азии иАТР. – М.: Ключ-С, 2011. – 8-9 с.

⁵³ Ашмн.Г.К. Элитология: история, теория, современность: монография. Моск.гос. ин-международ. Отношений (ун-т) МИД России, каф. Философи. – М.: МГИМО – Университет, 2010. – 157с.

- 2) “Iqtisodiy-resurs”;
- 3) “Maqom-rol”.

1-vektor elita harakatlanishining samaradorligi, ularning strategik salohiyat, siyosiy jarayonlarning rivojlanishiga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko’rsatadigan asosiy auditoriya vakillari bilan aloqalar tizimini yaratish va o’rnatish bilan bog’liq. Davlat, huquqiy institutlar va boshqaruv tuzilmalari resurslaridan foydalangan holda eng ommabop qadriyatlarni birlashtirish va ularni ma’lum bir mafkuraviy an’anaga birlashtirish hisoblanadi.

2-vektor elita guruhlarini vakillarining iqtisodiy va moliyaviy resurslariga tayangan holda siyosatga ta’sir qilish, siyosiy jarayonning borishini boshqarish, ijtimoiy-boshqaruv va ijtimoiy-tartibga solish jarayonlarida ishtirok etish qobiliyati bilan bog’liq.

3-vektor elita guruhlarini vakillarining o’ziga xos ijtimoiy xususiyatlari, ierarxik jamiyatning ijtimoiy-siyosiy tizimida ular egallagan o’ziga xos siyosiy mavqei, tashkiliy imkoniyatlari va boshqaruv uslubi bilan bog’liq. Ushbu vektorlarning bir-biri bilan bog’liqlik darajasi elitaning alohida vakillari yoki butun elita guruhlarining siyosiy boshqaruv, siyosiy tartibga solish va siyosiy dinamikasi jarayonlari bilan bog’liq dinamik tendensiyalarini aniqlash imkonini beradi.⁵⁴

Biroq, odamlarning hunkron guruhga qo’shilish jarayonida umumiy qonuniyatlar mavjud. Barcha mamlakatlar uchun universal – bu elitani yollash kanallari – bu ijtimoiy institutlar, ularga qo’shilish odamlar hokimiyatga erishish imkoniyatini beradi.⁵⁵ Bularga quyidagilar kiradi:

1. Siyosiy partiyalar (ayniqsa, G ‘arbiy Yevropa mamlakatlarida ularning roli katta bo’lib, elitaga kirish uchun da’vogar partiya iyerarxiyasining barcha bosqichlaridan o ‘tishi kerak. Margerat hilda Thatcher, Fransua Mitteran, Gelmut Kol va o ‘sha siyosatchilar shunday. Ular o ‘rnini egallagan bugungi kunda o ‘z kareralarini asosiy davlat lavozimlarida qildi).

2. Byurokratik apparat (mansabdor shaxslarning salmoqli qismini barcha rivojlanayotgan mamlakatlar elitesida, shuningdek, Yaponiya va Shvetsiya kabi yuqori darajada rivojlangan mamlakatlarda kuzatish mumkin).

3. Diniy tashkilotlar (islom mamlakatlari, katolitsizm ta’siri kuchli bo’lgan davlatlar).

4. Uyushmalar. Kasaba uyushmalarirahbarlari ko’plab mamlakatlarning siyosiy elitesida muhim rol o’ynaydi. AQSHning sobiq prezidenti Ronald Reygan va Polshaning sobiq prezidenti Lex Valensa o’z siyosiy faoliyatini kasaba uyushmalari yetakchisi sifatida boshlagan. Germaniya, fransuz va ingliz parlamentlarida esa an’anaviy ravishda ishchi va fermerlar emas, balki kasaba uyushmalari yetakchilari

⁵⁴ Г.К.Ашин, А.В.Понеделков, В.Г.Игнатов, А.М.Старостин. Основы политической элитологии: Учебное пособие. Рекомендовано Министерством общего и профессионального образования Российской Федерации в качестве учебного пособия для студентов высших учебных заведений. – М.: 1999 – 74с.

⁵⁵ U.X.Bo’tayev. Siyosatshunoslik[Matn]: darslik, T.: Info capital Books, 2024. – 341b.

orasiidan professional siyosatchilar leyborislar sotsialistik partiyalar deputatlari ustunlik qiladi.

5. Iqtisodiy institutlar, biznes sektori 9 bu kanal AQSH va Yaponiya uchun eng xosdir).

5. Armiya (Lotin Amerikasi, Isroil. Masalan, Isroilning oxirgi uchta bosh vaziri harbiy generallar).

7. Barcha mamlakatlarda ta'lim tizimi katta rol o'ynaydi. Britaniyalik siyosatshunoslarining fikriga ko'ra, bu mamlakatni faqat Oksford yoki Kembrijni tugatgan va bir yoki ikkita oliy ma'lumotga ega bo'lgan odamlar boshqaradi, ko'pincha iqtisodiy va yuridik soha vakillari bu yerda yetakchi hisoblanadi).⁵⁶

Partiyalar hukmron elita va siyosiy liderlarni yollash mexanizmi sifatida siyosiy yollash funksiyalarini bajaradigan hamda siyosiy elita a'ziligiga – xalq deputatlari vakillik organlaridagi deputatlik lavozimlariga nomzodlarni tanlash, ko'rsatish va rag'batlantirish bo'yicha faoliyatni amalga oshiradigan tashkiliy tuzilmalardir.⁵⁷

XX asrning 50-yillari boshlarigacha siyosatshunoslikning rivojlanishini tavsiflovchi “eski” institutsionalizm doirasida siyosiy institutlar sifatida partiyalarni o'rganishda institutsional yondashuvdan foydalanishning klassik an'anasi rivojlandi. M.Ostrogorskiy, R.Mishels, M.Dyuverger tomonidan tashkil etilgan. Klassik institutsionalizm an'analari doirasida partiyalar ham davlat organlari tizimiga, ham jamoat institutlari tizimiga kiradigan tashkilotlar tizimi sifatida ma'lum tuzilishga, partiya faoliyatining ichki tashkiliy me'yorlari va qoidalariga rga bo'lgan rasmiylashtirilgan siyosiy tashkilotlar sifatida qaraldi.⁵⁸

Partiyalarning yollash faoliyatini va ularning nomzodlarini tanlash usullarini o'rganishdagi neo-institutsionalizm partiya ishtirokchilari – ijtimoiy qadriyatlar, manfaatlar va strategiyalarni tavsiflovchi an'anaviy xulq -atvor hodisalarini tahlil qilishda nomzodlarni tanlashga ta'sirga e'tibor qaratish bilan tavsiflanadi va institutsional omillar – siyosiy tizimlari, qonuniy belgilangan kvotalar, ularning ishga qabul qilish faoliyati natijalar hisoblanadi.⁵⁹ Partiyalar siyosiy elitani yollash jarayonining elementi va institutsional mexanizmi bo'lib, siyosiy tizim darajasida sodir bo'ladi.⁶⁰ Va eng muhim vazifalarni bajaradi. Partiyalar hukmron siyosiy elita va yetakchilarini yollash jarayonining tizimli funksiyalarini amalga oshirishni ta'minlaydi va bu jarayon natijalariga hamda butun siyosiy tizim faoliyati natijalariga hissa qo'shadi. Partiyalar va ularning faoliyati hukmron elita va yetakchilarni yollashning siyosiy – tizimli jarayonining omili hisoblanadi.⁶¹

⁵⁶ Michael Hartmann. The sociology of elites. B.: Routledge Taylor&Francis Group. 17-19p.

⁵⁷ C. Wright Mills. The Power elite. Washington 1956. 343p.

⁵⁸ M.Qirg'izboyev. Siyosatshunoslik: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. T.: “Sharq”, 2024. – 202b.

⁵⁹ H. Best, J.Higley. The Plagrave handbook of political elites. 155p.

⁶⁰ J.Abbink, T.Salverda. The anthropology of elites: power, culture, and the complexities of distinction. USA: Copyright. 2013 – 95p.

⁶¹ A.Shipman, J.Edmunds, Brayan. S.Turner. The new power elite: inequality, politics and greed. USA: ANTHEM press. 2018 – 24-25p.

Hukmron siyosiy elitani yollash mexanizmlari sifatida partiyalarni o'rganishning siyosiy-tizimli va protsessual-funksional yo'nalishlari siyosiy-tizimli, tarkibiy-funksional, tarkibiy-omili yondashuvlaridan foydalanishni taqazo etadi.⁶²

Tizimli usul - boshqaruvchi elita va rahbarlarni ishga qabul qilish mexanizmlarini menejerlarni tanlashning siyosiy-tizimli jarayonining elementlari sifatida o'rganish, shuningdek partiyalarning o'zlarini institutsional mexanizmlar sifatida o'rganish, ularning tarkibi, tuzilishi va o'zaro munosabatlari nuqtai nazaridan o'rganish imkonini beradi. Partiya ichidagi ishga qabul qilish faoliyatini ta'minlovchi partiya organining elementlari.

Strukturaviy-funksional usul – hukmron elita va yetakchilarni yollash mexanizmlari sifatida partiyalarning siyosiy-tizimli funksiyalarni hamda partiyalarni tanlash mexanizmlarining turli elementlarining funksional rolini tahlil qilishda samarali hisoblanadi. Strukturaviy omil yondashuvi bizga partiyalarning hukmron elitani jalb qilish bo'yicha faoliyatini qanday va qanday samarali amalga oshirishiga, partiyalar hokimiyat elitasini jalb qilish natijalariga qanday hissa qo'shishiga ta'sir qiluvchi tizimli va mikroqulq-atvor, tarkibiy va protsessual omillarni aniqlashga imkon beradi. Umuman siyosiy tizim va siyosatning submilliy darajasida, shuningdek, "saylovchilar – partiyalar – nomzodlar" munosabatini tizimda partiyalarning rolini aniqlash.⁶³

Muhokama va natijalar. XIX asrda partiyalar siyosiy tizimda o'z mavqeini asosan mustahkamlab, jamiyat manfaatkarini ifodalashning muhim mexanizmiga aylandi. Shu bilan birga, asrning birinchi choragida boshlangan ommaviy, asosan sotsialistik partiyalarning shakllanishi jarayoni bir qator sifat jihatdan yangi tendensiyalarni, xususan, partiyalarning yetakchi turlari va ularning roli o'zgarishini belgilab berdi.⁶⁴ Turli mamlakatlarning siyosiy jarayonida va protogeneznning ikkinchi bosqichi haqida gapirishga imkon berdi.

Shunday qilib, R.Mishels, M.Veber, M.Ya.Ostrogorskiy sotsialistik partiyalar qo'ynida partiya aparatining rolini oddiy a'zolar zarariga oshirishga, partiya birlashmalarini byurokratlashtirishga, doimiy ravishda o'sib borayotgan tendensiyalarni payqashdi.⁶⁵ Partiya yetakchilari va elitalarning ustunligini oshirish masalasi muhim bo'lgan. Shunday qilib, Mishels kitobida "Siyosiy partiyalar. Zamonaviy demokratiyaning oligarxik tendensiyalarining sotsiologik tadqiqi (1911)" asarida yozishicha, partiyaning rasmiy apparati qanchalik kengaysa va rivojlansa, undan demokratiya shunchalik siqib chiqariladi, uning o'rniga ijroiya organlarining hamma narsaga qodirligi keladi. Partiya rahbariyatining oddiy partiya a'zolaridan ajralishi sabablarini u xalq ommasining boshqaruvga texnik jihatdan nochorligida,

⁶² M.Dogan. Elite configurations at the apex of power. Brill. Leiden.Boston. 2003. 127p.

⁶³ Comparative Politics Today: A World View/ ed. by Almond G., Power G, New York, 1996. – P. – 9-10.

⁶⁴ J.P.Dalos. The sociology of elite distinction: from theoretical to comparative. CNRS University of Oxford & University of Oslo. 2010. 198p.

⁶⁵ M.Киргизбоев. Партология. Укув кулланма. – Т.: Akademiya.2007. – Б. 55-56.

shuningdek, yetakchilarning o'zgarasligida, ularning oddiy a'zolarga nisbatan keskin salbiy munosabatida ko'rdi.

Ushbu tezisni tasdiqlagan holda, M.Ya.Ostrogorskiy partiya a'zolarining asosiy qismi partiya elitasi ("kokus") tomonidan manipulyatsiya obyektiga aylanishini ta'kidladi. Ularning ta'siri ostida partiyalar qonun chiqaruchi funksiyani parlament qo'ldan tortib olishga, siyosiy jihatdan xabardor guruhlarining stixiyali ifodasini bostirishga va liberal demokratiyani yo'q qilishga harakat qildilar. Shu sababli, u qattiq tashkilotga ega partiyalar o'rniga, "o'z oldiga yanada aniq va amalga oshirilishi mumkin bo'lgan turli xil vazifalarni qo'yadigan erkin jamoat birlashmalari, harakatlar paydo bo'lishi kerak va ulardan birida qatnashish boshqa birida ishtirok etishni istisno qilmasligi kerak, shunday qilib bir masalada muxolif bo'lib chiqqan ikki kishi, keyin boshqa masalada ittifoqchi bo'lishi kerak" degan qarashni rivojlantirishni qo'ydi.⁶⁶

Maks Veber siyosiy partiyalarni "ijtimoiy mexanizm" sifatida ko'radi. Demokratik jarayonlarning kaliti deb biladi. Zaro, uning fikricha siyosiy partiyalar orqali xalq boshqaruvda ishtirok eta oladi. Siyosiy elita almashinuvida ham bu jarayon barqaror siyosiy ijtimoiylashuvni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.⁶⁷

Birinchi navbatda, nomzodni maqsadli tanlash orqali partiyalar elitaning aylanishini ta'minlaydi. "Tizim, - ta'kidladi M.Dyuverger, - xalq orasidan chiqadigan va eskisini almashtiradigan hukmron sinfni yaratishga imkon beradi. Siyosiy partiyalarning chuqur ma'nosi shundaki, ular yangi elita yaratilishga harakat qilmoqdala. Har bir hukumat tabiatan oligarxikdir, ammo oligarxiya manbalari va ularning shakllanishi yo'llari juda boshqacha bo'lishi mumkin. Partiyasiz rejim hokimiyatga pul yoki mansab orqali kelgan hikmron eliatni abadiylashtiradi. Partiyasiz rejim, albatta, konservativ tuzum. Tarixan partiyalar omma siyosiy hayotda chinakam ishtirok eta boshlagan paytdan boshlangan: ular o'z saflaridan o'z elitasini to'plash imkonini beruvchi asosni yaratganlar."⁶⁸

Xulosa: Zamonaviy siyosiy elitalogiyaning siyosiy elita rekrutatsiyasida siyosiy partiyalar mobilizatsion va transformatsion, modernizatsion, sirkulyatsion siyosiy jarayonlarda samarali va istiqbolda eng ma'qul yechimlar bera olishi mumkin bo'lgan siyoat subyekti hisoblanishi ilmiy tadqiqotlarda o'z yechimini topmoqda. ⁶⁹ Siyosiy partiyalar bugunga kelib, dunyoning rivojlangan davlatlarida xalq bilan hokimiyat o'rtasida asosiy bog'lovchi bo'g'in bo'lgan bo'lgan demokratik institutga aylandi. Siyosiy partiyalar jamiyatning bir bo'lagi bo'lib, u muayyan guruh va qatlamning manfaatlarini ifodalaydi.⁷⁰ Siyosiy partiyalar elita rekrutatsiyasida muhim pozitsiyalarni egallashini qolgan elita rekrutatsiyasi kanallariga qaraganda XX-XXI asrda muhim rol o'ynayotganini ko'rishimiz. Siyosiy elita rekrutlashuv keng va tor

⁶⁶ Острогорский М.Я. Демократия и политические партии. Т.2. – Москва, 1930ю – 250 с.

⁶⁷ Вебер М. Избранные произведения. М., 1990. – С. 667-671.

⁶⁸ Duverger M. Political Parties. Their Organization and Activity in Modern State. N.Y., 1954. – P. 28, - 64.

⁶⁹ Biturayev O'.B. Siyosatshunoslikka kirish (o'quv qo'llanma) T.: "Barkamol fayz media", 2017. 155b.

⁷⁰ X.T.Odilqoriyev, D.X.Razzoqov. Siyosatshunoslik. T.: "O'qituvchi"2008. 154b.

ma'noda reputatsion, pozitsion, regulyatsion, formatsion o'zgarishlarni ta'minlaydi. Sababi har bir elita hokimiyatda bo'lganida o'zining imidji va status-kvosi uchun raqobat olib boradi va o'z legitimligini turli siyosiy institutlar orqali ta'minlaydi. Aynan siyosiy partiyalar bu yerda legitimlik vositachisi sifatida byurokratik apparat, diniy tashkilotlar, armiya, kasaba uyushmalariga qaraganda ta'sir etish va o'tkazish qobiliyati kuchli hisoblanadi. Bu siyosiy tizimda ham o'zining operatsion ko'rinishlariga ega hisoblanadi. Siyosiy partiyalarning bir qator funktsiya va vakolatlarini inobatga oladigan bo'lsak, siyosiy partiya pozitsiyasi o'zida siyosiy maydondagi ishtiroki nuqtai nazaridan qolgan raqobatdosh bo'lgan asosiy siyosiy institutlarga qaraganda markaziy doira atrofida ritmiklik xususiyatlarini namoyon qilgan holda aylanadi va ko'rsatadi. Siyosiy partiyalar siyosiy islohotlar jarayonida ham muhim o'ringa ega. Bunda asosan, siyosiy partiyalarning siyosiy texnologiyalardan faol va to'g'ri foydalana olishi ham ajralib turadi.⁷¹ Siyosiy elita rekrutlashuvi, sirkulyatsiyasida, transformatsiyasida, reproduksiyasida, reabilitatsiyasida siyosiy partiyalar siyosiy tizim uchun tizim osti elementlari va komponentlarini ta'minlashda yetakchi mavqei mustahkamlaydi. Xususan, siyosiy partiyaning status – kvosi ham bu jarayonda shakllanadi va amalda o'z natijalarini ko'rsata olishi va qo'llay olishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1) Золдотухин. И.Н. Партийки фактор в политическом системе США и Республики Филиппин // Ойкумена. – 2008. - №3. – С.73.
- 2) К.М. Mirzaaxmedov. Siyosiy elita va yetakchilik: ma'ruza. 2023. 1-2b.
- 3) К.М. Mirzaaxmedov. Siyosiy jarayonlarning tizimli tahlili: Ma'ruza. 2023. 3-4b.
- 4) К.М Mirzaaxmedov. Davlat boshqaruvi asoslari: Ma'ruza. 2022. 7b.
- 5) К.М Mirzaaxmedov. Siyosiy elita va yetakchilik: Ma'ruza. 2023. 4b.
- 6) А.Ю.Другова, Н.П.Малетина, О.В.Новаковой. Элиты стран востока: [сборник статей]/ Моск.гос.ун-тим. М.В.Ломоносова, Ин-т стран Азии и Африки, Центр изучения совр. Проблем Юго-Восточной Азии иАТР. – М.: Ключ-С, 2011. – 8-9 с.
- 7) Ашмн.Г.К. Элитология: история, теория, современность: монография. Моск.гос. ин-междунар. Отношений (ун-т) МИД России, каф. Философии. – М.: МГИМО – Университет, 2010. – 157с.
- 8) 7) Г.К.Ашин, А.В.Понеделков, В.Г.Игнатов, А.М.Старостин. Основы политической элитологии: Учебное пособие. Рекомендовано Министерством общего и профессионального образования Российской Федерации в качестве учебного пособия для студентов высших учебных заведений. – М.: 1999 – 74с.
- 9) U.X.Bo'tayev. Siyosatshunoslik[Matn]: darslik, T.: Info capital Books, 2024. – 341b.

⁷¹ Jumayev.R, Yovqochev.Sh, Siyosiy texnologiyalar: O'quv qo'llanma. -T.:2018. – 126-127b.

- 10) Michael Hartmann. The sociology of elites. B.: Routledge Taylor&Francis Group. 17-19p.
- 11) C. Wright Mills. The Power elite. Washington 1956. 343p.
- 12) M.Qirg'izboyev. Siyosatshunoslik: Oliy o 'quv yurtlari talabalari uchun darslik. T.: "Sharq" , 2024. – 202b.
- 13) H. Best, J.Higley. The Plagrave handbook of political elites. 155p.
- 14) J.Abbink, T.Salverda. The anthropology of elites: power, culture, and the complexities of distinction. USA: Copyright. 2013 – 95p.
- 15) A.Shipman, J.Edmunds, Brayan. S.Turner. The new power elite: inequality, politics and greed. USA: ANTHEM press. 2018 – 24-25p.
- 16) 15)M.Dogan. Elite configurations at the apex of power. Brill. Leiden.Boston. 2003. 127p.
- 17) 16) Comparative Politics Today: A World View/ ed. by Almond G., Power G, New York, 1996. – P. – 9-10.
- 18) 17) J.P.Dalos. The sociology of elite distinction: from theoretical to comparative. CNRS University of Oxford & University of Oslo. 2010. 198p.
- 19) 18) M.Киргизбоев. Партология. Укув кулланма. – Т.: Akademiya.2007. – Б. 55-56.
- 20) 19) Острогорский М.Я. Демократия и политические партии. Т.2. – Москва, 1930ю – 250 с.
- 21) 20) Вебер М. Избранные произведения. М., 1990. – С. 667-671.
- 22) 21) Duverger M. Political Parties. Their Organization and Activity in Modern State. N.Y., 1954. – P. 28, - 64.
- 23) Biturayev O.B. Siyosatshunoslikka kirish (o'quv qo'llanma) T.: "Barkamol fayz media", 2017. 155b.
- 24) X.T.Odilqoriyev, D.X.Razzoqov. Siyosatshunoslik. T.: "O'qituvchi"2008. 154b.
- 25) Jumayev.R, Yovqochev.Sh, Siyosiy texnologiyalar: O'quv qo 'llanma. - T.:2018. – 126-127b.